O‘ZBEKISTONDA TALABA-QIZLAR FAOLLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATI: TARIXIY-GENDER TRANSFORMATSIYASI (1991–2026)

Shahodat Oxunjonova

FarDU O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d

Annotatsiya Mazkur maqolada 1991–2026-yillarda O‘zbekistonda talaba-qizlarning ilmiy va jamoatchilik faolligini qo‘llab-quvvatlash siyosatining shakllanishi hamda tarixiy transformatsiyasi tahlil qilinadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida xotin-qizlarning ta’lim olish huquqini ta’minlash va iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirishga qaratilgan umumiy mexanizmlardan boshlab, gender tenglikni huquqiy jihatdan kafolatlash, xotin-qizlarning oliy ta’lim bilan qamrovini kengaytirish, magistratura va doktoranturada ularning ilmiy faolligini rag‘batlantirishga qaratilgan maxsus mexanizmlargacha bo‘lgan evolyutsiya tarixiylik tamoyili asosida yoritiladi. Tadqiqotda 1991–2016, 2017–2021 va 2022–2026-yillar alohida tarixiy bosqichlar sifatida o‘rganilib, talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatining universal ta’lim siyosatidan genderga yo‘naltirilgan institutsional modelga o‘tish xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, ta’lim kreditlari, davlat grantlari, magistratura kontraktlarini qoplash, ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, jamoatchilik faolligini rivojlantirish kabi zamonaviy mexanizmlarning tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, talaba-qizlar, oliy ta’lim, gender siyosati, ilmiy faollik, jamoatchilik faolligi, gender tenglik, tarixiy transformatsiya, davlat siyosati, ilm-fan.

Kirish. Mustaqillikdan keyingi O‘zbekiston tarixida xotin-qizlarning ta’lim olishi, ilm-fan bilan shug‘ullanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi masalasi ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Mazkur jarayonni faqat zamonaviy gender siyosati doirasida emas, balki 1991-yildan buyon kechgan ijtimoiy-siyosiy va ta’lim islohotlarining tarixiy natijasi sifatida o‘rganish muhimdir.

Muammoning tarixiy jihati shundaki, mustaqillikning dastlabki davrida yoshlarning, jumladan qizlarning ta’lim va ilmiy salohiyatini rivojlantirish asosan umumiy ta’lim siyosati doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda xotin-qizlarga nisbatan alohida institutsional, huquqiy va moliyaviy mexanizmlar shakllandi. Ayniqsa, 2019-yildan

gender tenglikning mustaqil huquqiy kategoriya sifatida mustahkamlanishi va 2022-yildan xotin-qizlarning oliy ta’lim hamda ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli mexanizmlarning kengayishi ushbu siyosat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

Maqolaning maqsadi — 1991–2026-yillarda O‘zbekistonda talaba-qizlarning ilmiy va jamoatchilik faolligini qo‘llab-quvvatlash siyosatining shakllanish bosqichlari, tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy gender mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimlilik, muammoviy-xronologik, qiyosiy-tarixiy va retrospektiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar tarixiy manba sifatida o‘rganilib, turli davrlardagi davlat siyosatining maqsad va mexanizmlaridagi o‘zgarishlar o‘zaro taqqoslandi.

Mustaqillikning dastlabki davrida talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy va ijtimoiy asoslari

1991-yilda O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi jamiyatning barcha sohalari qatori ta’lim tizimini ham milliy taraqqiyot ehtiyojlari asosida qayta tashkil etish zaruratini yuzaga keltirdi. Dastlabki bosqichning muhim xususiyati shundaki, xotin-qizlar ta’limi alohida gender siyosati sifatida emas, balki fuqarolarning ta’lim olish huquqi, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va milliy kadrlar tayyorlash siyosatining tarkibiy qismi sifatida rivojlandi.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazkur jarayonda muhim tarixiy o‘rin egalladi. Dastur yuqori malakali kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash, ularning xorijiy ta’lim hamda ilmiy markazlarda o‘qishi va stajirovka o‘tashi uchun sharoit yaratishni nazarda tutgan edi [1].

Mazkur davr siyosatining xarakterli tomoni — talaba-qizlarga alohida imtiyozlardan ko‘ra, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan universal mexanizmlarning ustunligidir. Shu bilan birga, 1990-yillarning oxiriga kelib iste’dodli qizlarni alohida rag‘batlantirish mexanizmlari ham shakllana boshladi.

1999-yil 10-iyundagi PF-2326-son Farmon asosida Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining ta’sis etilishi bu boradagi muhim tarixiy qadam bo‘ldi. Mukofot yosh xotin-qizlarning adabiyot, madaniyat, san’at, fan va ta’limdagi yutuqlarini davlat miqyosida

rag‘batlantirish mexanizmini shakllantirdi. Keyingi tartiblarda mukofot sohibalariga oliy ta’limga kirishda davlat granti asosidagi imtiyozlar ham nazarda tutildi [2].

Shunday qilib, 1991–2016-yillarni talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatining institutsional asoslari shakllangan birinchi bosqich sifatida tavsiflash mumkin. Bu davrda siyosatning asosiy obyekti alohida “talaba-qiz” kategoriyasidan ko‘ra “yoshlar”, “iqtidorli yoshlar” va “yuqori malakali kadrlar” tushunchalari bilan ifodalangan. Biroq aynan shu davr keyingi genderga yo‘naltirilgan mexanizmlar uchun tarixiy-huquqiy zamin yaratdi.

2017–2021-yillarda gender yondashuvning institutsionallashuvi. 2017-yildan boshlangan yangi bosqichda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, ta’lim olishi, ijtimoiy-siyosiy faolligi va davlat boshqaruvidagi ishtirokiga oid masalalar alohida davlat siyosati yo‘nalishi sifatida kuchaydi.

Bu davrning eng muhim huquqiy voqealaridan biri 2019-yil 2-sentabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur qonun gender tushunchasini huquqiy muomalaga kiritib, ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklarga teng huquq va imkoniyatlar ta’minlanishini davlat kafolati sifatida belgiladi [3].

Qonunning tarixiy ahamiyati shundaki, avvalgi davrdagi umumiy ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tamoyilidan gender tenglikni ta’minlashga yo‘naltirilgan huquqiy-institutsional modelga o‘tish kuzatildi. Gender statistikasi, gender-huquqiy ekspertiza, keyinchalik gender auditi kabi tushunchalarning huquqiy tizimga kirib kelishi davlat siyosatini baholashning yangi vositalarini yuzaga chiqardi.

Mazkur o‘zgarish talaba-qizlar faolligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda ularning oliy ta’lim, ilmiy faoliyat va jamoatchilik boshqaruvida ishtirok etishi faqat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalasi emas, balki teng imkoniyatlarni ta’minlash muammosi sifatida ham qarala boshlandi.

Shu jihatdan 2017–2021-yillarni gender yondashuvning huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlangan ikkinchi tarixiy bosqichi deb baholash mumkin.

2022–2026-yillarda talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatining yangi bosqichi

2022-yildan boshlab xotin-qizlarning ta’lim va ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash siyosatida miqdoriy jihatdan ham, institutsional mexanizmlar nuqtayi nazaridan ham sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi.

2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmon bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur tasdiqlandi. Farmonda xotin-qizlarning ta’lim olishi va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator maxsus mexanizmlar belgilandi [4].

Jumladan, 2022/2023-o‘quv yilidan xotin-qizlarning ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun imtiyozli shartlarda ta’lim kreditlari tizimi joriy qilindi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining magistraturasida tahsil olayotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini davlat budjeti hisobidan qoplash mexanizmi belgilandi. Shuningdek, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat va magistratura dasturlari bo‘yicha tahsil olish uchun “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali xotin-qizlarga qo‘shimcha grantlar ajratish nazarda tutildi [4; 5].

2022-yil 18-iyuldagi PQ-323-son qaror ushbu mexanizmlarning amaliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Hujjatning maqsadi ta’lim tashkilotlarida tahsil olish istagidagi xotin-qizlar uchun qulay sharoit yaratish hamda ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat edi [5].

Xotin-qizlarning oliy ta’lim bilan qamrovini oshirishga qaratilgan yana bir mexanizm ehtiyojmand toifadagi xotin-qizlar uchun qo‘shimcha davlat grantlarining ajratilishi bo‘ldi. 2022/2023-o‘quv yilidan tegishli tavsiyanomaga ega, oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi shakliga qo‘shimcha 2 000 ta davlat granti ajratilishi belgilangan edi [6].

Mazkur mexanizm keyingi yillarda kengaytirildi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil yakunlari bo‘yicha ma’lumotiga ko‘ra, 2025/2026-o‘quv yilida mazkur qo‘shimcha davlat grantlari soni 4 000 taga yetkazildi [7]. Bu holat gender siyosatining bir martalik imtiyozdan muntazam institutsional mexanizmga aylanish tendensiyasini ko‘rsatadi.

Talaba-qizlarning ilmiy faolligini rag‘batlantirish mexanizmlarining transformatsiyasi

Talaba-qizlarning faolligini faqat oliy ta’limga qabul ko‘rsatkichlari bilan o‘lchash yetarli emas. Tarixiy transformatsiyaning keyingi bosqichi ularning bakalavriat → magistratura → doktorantura → professional ilmiy faoliyat zanjirida barqaror ishtirokini ta’minlashga qaratilgan mexanizmlarning paydo bo‘lishida ko‘rinadi.

2022-yildagi islohotlarda davlat OTMlari magistraturasida tahsil olayotgan xotin-qizlarning kontrakt xarajatlarini budjetdan qoplash mexanizmining joriy etilishi aynan shu jihatdan muhimdir. Mazkur chora bakalavriatdan keyingi ta’limni davom ettirishdagi moliyaviy to‘siqlarni kamaytirishga qaratildi [4].

Shuningdek, davlat siyosatida olima ayollar sonini oshirish, doktorantura bosqichida xotin-qizlar uchun maqsadli imkoniyatlar yaratish masalasi ham ilgari surildi. 2022-yilda e’lon qilingan chora-tadbirlarda doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 ta maqsadli kvota ajratish ko‘zda tutilgani ushbu jarayonning ilmiy kadrlar tayyorlash bosqichiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi [8].

Demak, 1990-yillarda iqtidorli qizlarni mukofot va tanlovlar orqali rag‘batlantirish ustun bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yillarga kelib qo‘llab-quvvatlashning uzluksiz ilmiy trayektoriyasi shakllana boshladi. Buni tarixiy jihatdan quyidagi transformatsiya orqali ifodalash mumkin:

iste’dodni aniqlash → oliy ta’limga kirishni qo‘llab-quvvatlash → ta’limni moliyalashtirish → magistraturani rag‘batlantirish → doktoranturaga yo‘naltirish → ilmiy va professional liderlik.

Mazkur transformatsiya gender siyosatining faqat ijtimoiy himoya mexanizmidan inson kapitalini rivojlantirish vositasiga aylanganini ko‘rsatadi.

Jamoatchilik faolligi va gender mexanizmlarining institutsional xususiyatlari

Talaba-qizlarning jamoatchilik faolligi oliy ta’limdagi akademik ko‘rsatkichlar bilangina cheklanmaydi. Jamoat tashkilotlari, talabalar kengashlari, xotin-qizlar tuzilmalari, volontyorlik, ilmiy konferensiyalar, tanlovlar, startap va ijtimoiy loyihalarda qatnashish ham ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismidir.

2022-yil 1-martdagi davlat siyosatiga oid hujjatlarda iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ularning qobiliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va gender tenglik siyosatini davom ettirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi [9].

Shu davrda Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi va uning hududiy tizimining qayta tashkil etilishi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning institutsional bazasini kuchaytirdi [10]. Oliy ta’lim tizimida xotin-qizlar bilan ishlash tuzilmalari, maslahat kengashlari va boshqa

jamoatchilik mexanizmlarining faoliyati ham talaba-qizlarning tashabbuskorligini rivojlantirish uchun tashkiliy maydon vazifasini bajarmoqda.

Bunday mexanizmlarning tarixiy mohiyati shundaki, 1990-yillardagi “iqtidorli qizni aniqlash va rag‘batlantirish” modelidan 2020-yillarda “talaba-qizning tashabbusini institutsional qo‘llab-quvvatlash va uning qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish” modeliga o‘tish kuzatilmoqda.

Davlat siyosatidagi o‘zgarishlarni miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan qiyoslash tarixiy transformatsiyaning ko‘lamini aniqlash imkonini beradi.

2022-yilda e’lon qilingan rasmiy ma’lumotga ko‘ra, olti yil avval oliy ta’lim muassasalarida qariyb 110 ming nafar qiz tahsil olgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 400 ming nafarga yetgan. Talabalar tarkibidagi xotin-qizlar ulushi 2016-yildagi 38 foizdan qariyb 50 foizga ko‘tarilgani qayd etilgan [11].

2024-yil uchun Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining ish rejasida oliy ta’limdagi talabalar orasida xotin-qizlar ulushini 50,1 foizga yetkazish maqsadi belgilangan [12].

2025-yil yakunlariga oid rasmiy ma’lumotlarda esa O‘zbekistondagi oliy ta’lim tashkilotlari soni 207 taga, ularda tahsil olayotgan talabalar soni 1,7 million nafarga yetgani va oliy ta’lim bilan qamrov 44 foizdan oshgani qayd etiladi [7].

Mazkur raqamlar oliy ta’limning umumiy ommalashuvi bilan bir qatorda xotin-qizlarning undan foydalanish imkoniyatlari ham kengayganini ko‘rsatadi. Biroq tarixiy-gender tahlilda qamrovning oshishi bilan ilmiy va jamoatchilik liderligining oshishini aynan bir hodisa sifatida qabul qilish mumkin emas. Talaba-qizlarning ilmiy maqolalar, grantlar, startaplar, talabalar boshqaruvi, ilmiy kengashlar va keyinchalik akademik lavozimlardagi ishtirokini alohida ko‘rsatkichlar asosida o‘rganish zarur.

Tarixiy transformatsiyaning uch bosqichi. 1991–2026-yillardagi siyosatni qiyosiy tahlil qilish natijasida uchta asosiy tarixiy bosqichni ajratish mumkin.

Birinchi bosqich — 1991–2016-yillar. Bu davrda ta’lim tizimining milliy modeli yaratildi, yoshlar va iqtidorli qizlarni rag‘batlantirishning dastlabki mexanizmlari shakllandi. Xotin-qizlar masalasi ko‘proq umumiy ta’lim va ijtimoiy siyosat tarkibida namoyon bo‘ldi.

Ikkinchi bosqich — 2017–2021-yillar. Gender tenglik masalasi mustaqil davlat siyosati yo‘nalishiga aylandi. 2019-yildagi O‘RQ-562-son Qonun gender tenglikning huquqiy asoslarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi.

Uchinchi bosqich — 2022–2026-yillar. Xotin-qizlarning oliy ta’lim va ilmiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli moliyaviy, tashkiliy va institutsional mexanizmlar kengaydi. Ta’lim kreditlari, magistratura kontraktlarini davlat tomonidan qoplash, qo‘shimcha grantlar va ilmiy kadrlar tayyorlashni qo‘llab-quvvatlash ushbu bosqichning o‘ziga xos xususiyatiga aylandi.

Shunday qilib, o‘ttiz besh yillik tarixiy jarayonni shartli ravishda quyidagi model bilan ifodalash mumkin:

umumiy teng ta’lim imkoniyati → iqtidorli qizlarni rag‘batlantirish → gender tenglikni huquqiy kafolatlash → maxsus qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari → ilmiy va jamoatchilik liderligini rivojlantirish.

Muammolar va istiqboldagi tadqiqot yo‘nalishlari

Erishilgan natijalar bilan birga, tarixiy tadqiqot nuqtayi nazaridan bir qator masalalar chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Birinchidan, respublika miqyosidagi umumiy statistik ko‘rsatkichlar hududlar, ta’lim yo‘nalishlari va oliy ta’lim muassasalari kesimidagi farqlarni to‘liq aks ettirmaydi.

Ikkinchidan, talaba-qizlarning oliy ta’lim bilan qamrovi ularning ilmiy faolligi darajasini avtomatik ravishda ifodalamaydi. Shu sababli ilmiy konferensiyalarda ishtirok, maqolalar, grantlar, patentlar, startaplar, nomdor stipendiyalar va ilmiy loyihalardagi ishtirok bo‘yicha gender statistikasi tarixiy tadqiqotlarga kengroq jalb etilishi lozim.

Uchinchidan, jamoatchilik faolligini o‘rganishda talaba-qizlarning talabalar boshqaruvi, volontyorlik, yoshlar tashkilotlari, xotin-qizlar maslahat tuzilmalari va universitet miqyosidagi qarorlar qabul qilish jarayonidagi real ishtiroki alohida tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, 1991–2026-yillardagi o‘zgarishlarni faqat normativ-huquqiy hujjatlar asosida emas, balki OTM arxivlari, buyruqlar, yillik hisobotlar, talabalar matbuoti, shaxsiy hujjatlar va og‘zaki tarix intervyulari bilan boyitish mavzuning tarixiy xususiyatini yanada kuchaytiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, 1991–2026-yillarda O‘zbekistonda talaba-qizlarning ilmiy va jamoatchilik faolligini qo‘llab-quvvatlash siyosati murakkab va bosqichma-bosqich tarixiy transformatsiyani boshdan kechirdi.

Birinchidan, mustaqillikning dastlabki davrida yaratilgan milliy ta’lim tizimi va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari xotin-qizlarning ta’lim va ilmiy faoliyatiga kirib kelishi uchun umumiy institutsional zamin yaratdi.

Ikkinchidan, 1999-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining ta’sis etilishi iste’dodli yosh xotin-qizlarni alohida rag‘batlantirishning barqaror mexanizmlaridan birini shakllantirdi.

Uchinchidan, 2019-yildan gender tenglikning qonunchilik darajasida mustahkamlanishi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini umumiy ijtimoiy siyosatdan huquqiy va institutsional gender siyosatiga aylantirishda muhim burilish bo‘ldi.

To‘rtinchidan, 2022–2026-yillarda xotin-qizlar uchun ta’lim kreditlari, qo‘shimcha davlat grantlari, magistratura kontraktlarini qoplash va ilmiy kadrlar tayyorlashni qo‘llab-quvvatlash kabi mexanizmlarning kengayishi gender siyosatining manzilli xususiyatini kuchaytirdi.

Beshinchidan, tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, davlat siyosatining markazida dastlab ta’lim olish imkoniyatini yaratish turgan bo‘lsa, keyingi davrda ta’limda teng imkoniyat, undan so‘ng esa ilmiy va jamoatchilik faolligi hamda liderlik salohiyatini rivojlantirish masalasi oldingi o‘ringa chiqdi.

Shu asosda OTMlarda kelgusida talaba-qizlarning faolligini baholashda faqat ularning soni yoki ta’lim bilan qamrov darajasidan emas, balki ilmiy loyihalar, maqolalar, grantlar, innovatsion ishlanmalar, talabalar boshqaruvi va jamoatchilik tashabbuslaridagi ishtirokini aks ettiruvchi gender indikatorlari tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi 463-I-son “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // https://lex.uz/docs/-48401
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi PF-2326-son “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash

to‘g‘risida”gi Farmoni; shuningdek, Zulfiya mukofoti sohibalarining oliy ta’limga qabul qilinishiga oid normativ hujjatlar // https://lex.uz/uz/docs/-3602636

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/-4494849
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/-5899498
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi PQ-323-son “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // https://lex.uz/uz/docs/-6116203
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda davlat oliy ta’lim muassasalariga qabul jarayonlarini tashkil etishga oid qarori // https://lex.uz/uz/docs/-6070845
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. “2025-yil davomida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalarga bag‘ishlangan brifing”. – 2025. // https://president.uz/oz/lists/view/5014
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. “Xotin-qizlar uchun ulkan imkoniyatlar belgilandi”. – 2022. // https://president.uz/oz/lists/view/5014
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5841063
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishga oid qarori // https://president.uz/oz/lists/view/5057
11. “Ayol qadri ulug‘langan yurtda tinchlik va farovonlik barqaror bo‘ladi”. – 2022 // https://president.uz/oz/lists/view/5036
12. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2024-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejasi. – Toshkent, 2024 // https://gov.uz/oz/wcu/sections/view/36684